

**O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA  
MAHORAT DARSLARINING O'RNI**

**Abdreimova Jamila Hasanovna**

*Textakupir tumani, 12-sonli maktab psixologi*

Bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar natijasida turmush sharoitini yaxshilash, zamonaviy insonning yanada samarali rivojlanishi uchun nafaqat bilim darajasi, balki ma'lum bir faoliyat sohasidagi bilim va ko'nikmalari ham alohida ahamiyatga ega.

Tabiiyki ma'lum bir darajadagi umumiy yoki kasb-hunar ta'limiga ega bo'lgan shaxs mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi, lekin jadallik bilan tarrafiy etib boruvchi jamiyatda inson munosib o'rin egallashni xohlasa, mehnat samaradorligini oshirish uchun yanada yuqori malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida pedagoglardan erishilgan yutuqlarni muntazam boyitib borish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etishda shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Bu talablar ulardan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo'lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bunday imkoniyatga o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga hamda kasbiy kompetentlikka ega pedagoglarga ega bo'ladilar. Shunday ekan kadrlar malakasini oshirish jarayonida davrning mazkur talabini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish kurslarida pedagoglarni kasbiy kompetentlik sifatleri va ularni rivojlantirish yo'llari bilan yaqindan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki malaka oshirish tizimi pedagog kadrlarni kasbiy kompetentlik sifatlerini izchil rivojlantirib borish ko'nikma va malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratibgina qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi ko'nikma va malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida umumiy o'rta ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual kamol toptirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish masalalariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, xalq ta'limi tizimida malaka oshirish kursleri tinglovchilarining pedagogik faoliyati samaradorligida bevosita ta'sir etuvchi kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik omillarini aniqlash, kasbiy kompetentlikning asosini belgilab beruvchi komponentlarni belgilab olish va tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish malaka oshirish tizimining dolzarb vazifalari sifatida belgilandi. Shuningdek, o'qituvchilarning o'z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari qayta ko'rib chiqildi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir pedagogdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda rivojlantirib borishni, tinimsiz izlanish, o'z ustida ishlash va o'z malakasini uzluksiz oshirib borishni taqozo etmoqda.

Quyida malaka oshirish jarayonida pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Ma'lumki, kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.

Malaka oshirish jarayonida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda mahorat darslarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki mahorat darslari fan va texnika yutuqlari, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli hisoblanadi. Mahorat darslarini tashkil etish orqali ko'p yillik ish tajribasiga ega, shuningdek, samarali metodika yoki texnologiyaga ega yuqori malakali pedagoglarning kasbiy malakalari ochiq tarzda, interfaol muloqot asosida hamkasb pedagoglarga namoyish etiladi.

Mahorat darslari malaka oshirish muassasalarida, talab darajasidagi moddiy-texnik ta'minoti mavjud bo'lgan maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim hamda ijtimoiy soha tashkilotlarida tashkil etiladi. Mahorat darslarini, shuningdek, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida, oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida tashkil etish mumkin.

Malaka oshirish jarayonida malakali pedagoglarning mahorat darslarini tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

malakali, mahoratli pedagogning metodik yondashuvlarini belgilangan muammoni hal etish usullari bilan o'zaro muvofiqlashtirish;

mahoratli pedagog tomonidan o'zining kasbiy malakalarining hamkasblarga o'rgatilishi;

tajribali, mahoratli pedagog tomonidan izchil harakatlarning to'g'ridan to'g'ri va izohli namoyish etilishi orqali pedagogik faoliyatda o'qitishning samarali shakl, metod va vositalaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatish;

pedagog xodimlar o'rtasida fan va texnika yutuqlari, innovatsion g'oya va texnologiyalarni ommalashtirish;

muayyan muammo yoki mavzu bo'yicha tajribali, mahoratli pedagogning ish tajribasini ommalashtirish;

mahorat darslarining har bir ishtirokchisida individual ijodiy pedagogik faoliyat uslubini shakllantirish.

Shuningdek, mahorat darslarini tashkil etish natijasida quyidagi mahsulotlar yaratilishi mumkin:

- Sinflar kesimida testlar to'plami;
- Sinflar kesimida nazorat ishlari variantlari;
- Fanni o'qitishga doir o'quv resursi;
- Fanga doir qo'shimcha masalalar to'plami;
- Pedagogik adabiyot va manbalar kartotekasi;
- ilg'orish uslublarini aksettiruvchi taqdimotlar, stendlar, videoroliklar;
- ilmiy maqola va tezislar;
- o'quv kurslari, malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar dasturlari;
- ko'rgazmali qurol maketlari;
- fanga doir plakatlar to'plami;
- pedagogning ish tajribasini aksettiruvchi taqdimot;
- pedagoglarning ijodiyishlari mahsuli;
- ijodiy va ommaviy xarakterdagi tadbirlar, kechalar uchun senariylar, yo'riqnomalar, nizomlar, yo'l xaritalariva b.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, malaka oshirish jarayonida tashkil etiladigan mahorat darslari pedagoglarni o'z bilimlarini izchil boyitib borishga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, yangi bilimlarni izlab topishga, ularni qayta ishlash va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishga yo'naltiradi. Bu o'z navbatida pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish kurslari o'quv dasturlarida mahorat darslari tashkil etishga ko'proq ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr, 276-son.

2. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish kurslari namunaviy o'quv dasturlari. – T.: Xalq ta'limi vazirligi, 2021.

3. Адольф В.А. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления / В.А. Адольф. Красноярск: Поликом, 2007.– 190 с.